

Qutlov!



Hammamizga ma'lumki, yaqindagina O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Mustaqilligimizning o'ttiz yilligi munosabati bilan davlat xizmatchilari hamda ishlab chiqarish va ijtimoiy-iqtisodiy sohalar xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida

Farmoni imzolagan edi.

Qabul qilingan mazkur farmonga asosan Avtomobil yo'llari sohasida ko'p yillar davomida mehnat qilib kelayotgan bir guruh ishchi-xizmatchilar ham yuksak davlat mukofotlariga sazovar bo'lishdi.

Bular,



Qoraqalpog'iston Respublikasi Avtomobil yo'llari bosh boshqarmasi, Chimboy tuman yo'llardan foydalanish unitar korxonasi avtogreyderchisi **Saymbetov Perdebay Jumamuratovich** – "**Mehnat shuhrati**" ordeni bilan;



Xorazm viloyati avtomobil yo'llari bosh boshqarmasi, Shovot tuman yo'llardan foydalanish unitar korxonasi avtogreyderchisi **Ashirov Kuroi Saparbayovich** - "**Sodiq xizmatlari uchun**" medali bilan;



Surxondaryo viloyati avtomobil yo'llari bosh boshqarmasi, Angor tuman yo'llardan foydalanish unitar korxonasi avtogreyderchisi **Achildiev Mustafaqul Jo'raevich** - "**Shuhrat**" medallari bilan taqdirlandi.

Aziz hamkasblar! Sizlar erishgan ushbu yutuqlar butun yo'l sohasida xizmat qilib kelayotgan barcha-barchani quvontirgani tabiiy holdir.

Sizday yuksak davlat mukofotiga sazovor bo'lgan hamkasblarni sohada xizmat qilayotgan barcha yo'sozlar nomidan muborakbod etgan holda oilaviy baxt,uzoq-umr, sog'liq-salomatlik hamda kelgusidagi faoliyatingizga omadlar yor bo'lishini tilab qolamiz

Yana bir bor yuksak davlat mukofotlari muborak bo'lsin!

Avtomobil yo'llari qo'mitasi

jamoasi